

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OCHILOV FARXODJON SHAVKATJON O'G'LI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MAJBURIYATLAR HISOBİ VA
AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08—«Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025 yil

UDK: 657.6-048.32:334.722.8(575.1)

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской
диссертации (DSc)**

**Content of the Doctoral (DSc) dissertation
abstract**

Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li

Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini
takomillashtirish.....3

Очилов Фарходжон Шавкатжон угли

Совершенствование методологии учета и аудита обязательств в акционерных
обществах.....37

Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli

Improving the methodology of accounting and auditing of liabilities in joint-stock
companies.....73

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....78

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OCHILOV FARXODJON SHAVKATJON O‘G‘LI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MAJBURIYATLAR HISOBİ VA
AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08—«Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Iqt713 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdsc.uz) va «ZiyoNets» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Qo'ziyev Islomjon Ne'matovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Pardayev Matsayunus Qarshiboyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mamatqulov Murodjon Shukurovich iqtisodiyot fanlari doktri, dotsent Nurmanov Ulugbek Anorhayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.1.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «22» 06 kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 60A uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tdsc.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4691 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: kutubxona@tdsc.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «11» 06 kuni tarqatildi.
(2025 yil «11» 06 kuni) raqamli reyestr bayonnomaasi).



T.Z. Teshabayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash a'zosi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

J.X. Ataniyazov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

R.D. Dasmuratov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlari moliya-xo'jalik faoliyatining samarali tashkil etilmasligi, ularda biznes-jarayonlarning tizimli yo'lga qo'yilmaganligi natijasida o'z mablag'lari miqdori kamayib, korporativ qarzlar miqdori oshib bormoqda. Xususan, Xalqaro moliya korporatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, «2023 yilda jahon miqyosida hukumat, uy xo'jaliklari, moliyaviy va nomoliyaviy korporatsiyalarning qarzi 300 trln. AQSh dollarigacha o'sib, jahon yalpi ichki mahsulotining 349 foizini tashkil qilgan. Shundan jahonning yirik korporatsiyalarida majburiyatlar miqdori Toyota Motorsda 217 mlrd. AQSh dollari, Folksvagenda 166 mlrd. AQSh dollari, Doych Telekomda 115 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan»¹. Mazkur korporatsiyalarda majburiyatlar miqdorining oshib borishi ularda qarz inqirozi xavfini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarining majburiyatlarini kamaytirish hamda ularni oqilona boshqarishda buxgalteriya hisobi va auditga alohida e'tibor qaratish hamda uning nazariy, metodologik va amaliy muammolarini bartaraf etishda fundamental hamda amaliy tadqiqotlar sifati va salmog'ini oshirish lozim.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi hamda jahon bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlarning tahliliy hisobini yuritish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlarni tasniflash, qarz mablag'lari hisobi va tahlilini takomillashtirish, majburiyatlar auditini tashkil qilish, ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash, majburiyatlar auditida firibgarlik bilan bog'liq risklarni aniqlash masalalari o'z yechimini topgan. Biroq, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida uzoq va qisqa muddatli ijara majburiyatlari hisobini yuritish, amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha baholanadigan moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy holat to'g'risida hisobotda aks ettirish hamda moliyaviy hisobot auditini ishonchliligini ta'minlashda baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti va rezervlardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlarini qo'llash bilan bog'liq dolzarb masalalar hanuzgacha to'liq o'z yechimini topmagan.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy holatini yaxshilash hamda qarz mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, «davlat kafolati uchun to'lovlarni qarz oluvchi korxonalarning moliyaviy holati bo'yicha xatarlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash»² vazifasi qo'yilishi aksiyadorlik jamiyatlarida qarz mablag'laridan samarali foydalanish, ularning hisobi va auditini tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Mazkur holatlar aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil qilish, foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda baholanadigan uzoq va qisqa muddatli

¹ <https://gfmag.com/data/companies-largest-debt-world/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi». <https://www.lex.uz>.

moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarda majburiyatlarni amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha aks ettirish, majburiyatlar auditida uchraydigan muhim buzib ko'rsatishlar riskini aniqlash hamda ularni kamaytirish, majburiyatlar auditida faoliyat uzluksizligini baholash jarayonini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022 yil 24 avgustdagi PF-198-son «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020 yil 27 oktyabrdagi PF-6096-son «Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-son «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946-son «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 apreldagi 171-son «O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi, 2018 yil 14 dekabrdagi 1013-son «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2015 yil 28 iyuldagi 207-sonli «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatiga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlari, jumladan, Xalqaro buxgalterlar federasiyasi (IFAC), Xalqaro valyuta fondi (IMF), Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari (IAASB)

³<https://www.ifac.org>; <https://www.imf.org>; <https://www.iaasb.org>; <https://www.accaglobal.com>;
<https://www.aicpa.org>; <https://www2.deloitte.com>; <https://www.pwc.com>; <https://www.ey.com>;
<https://home.kpmg/xx>; <https://www.usf.edu>; <https://www.ue-varna.bg>; <https://www.uj.ac.za>;
<https://www.liverpool.ac.uk>; hainnu.edu.cn; <https://www.muni.cz>; <https://www.msu.ru>; www.rea.ru;
<https://www.sseu.ru>; <https://www.bfa.uz>; <http://tsue.uz>; <http://www.sies.uz>.

(AQSh), Sertifikatlangan diplomli buxgalterlar xalqaro assosiatsiyasi (ACCA), Amerika diplomli jamoatchi buxgalterlar instituti (AICPA) (AQSh), «Katta to'rtlik» xalqaro auditorlik kompaniyalari – Deloitte & Touche, PricewaterhouseCoopers, Ernst & Young, KPMG, Janubiy Florida universiteti (AQSh), Yoxannesburg universiteti (JAR), Varna iqtisodiyot universiteti (Bolgariya), Liverpul universiteti (Buyuk Britaniya), Xaynan universiteti (Xitoy Xalq Respublikasi), Masaryak universiteti (Chexiya Respublikasi), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Samara davlat iqtisodiyot universiteti, (Rossiya Federatsiyasi), O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar yakuni sifatida quyidagi ilmiy natijalar olingan: restruktizatsiyalash jarayonlari bilan bog'liq baholangan majburiyatlarni tan olish mezonlari ishlab chiqilgan (Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi); buxgalteriya hisobida shartli majburiyatlarga oid axborotlarning moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlariga ta'siri tadqiq etilgan (Xalqaro valyuta fondi); buxgalteriya hisobida xodimlarning mehnatiga to'lovlar bo'yicha sof majburiyat qiymatini aniqlashda aktuar usullardan foydalanish taklif etilgan (KPMG); modifikatsiyalash sanasida moliyaviy majburiyatlar joriy qiymatini aniqlash tartibi ishlab chiqilgan (Sertifikatlangan diplomli buxgalterlar xalqaro assosiatsiyasi); buxgalteriya hisobida majburiyatlarni haqqoniy qiymatda baholashning moliyaviy natijalar ko'rstakichlariga ta'siri tadqiq etilgan (Janubiy Florida universiteti, AQSh); moliyaviy hisobotlarda majburiyatlarni tan olishning tayanch konseptsiyalariga aniqlik kiritilgan (Yoxannesburg universiteti, JAR); zarar keltiruvchi shartnomalar bo'yicha baholangan majburiyatlarga oid rezervlarni shakllantirish metodologiyasi takomillashtirilgan (Varna iqtisodiyot universiteti, Bolgariya); auditorlik tekshiruvlarida ekonometrik modellashirishni qo'llash natijasida majburiyatlarni qoplash orqali pul oqimlarini samarali boshqarish asoslangan (Liverpul universiteti, Buyuk Britaniya); moliyaviy hisobot auditida majburiyatlar qiymati o'zgarishining faoliyat uzluksizligiga ta'siri tadqiq etilgan (Xaynan universiteti, Xitoy Xalq Respublikasi); majburiyatlar auditida moliyaviy leverij ko'rsatkichini qo'llash orqali aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holatini ishonchli baholash zarurligi asoslangan (Masaryak universiteti, Chexiya Respublikasi); buxgalteriya hisobida ekologik majburiyatlarni ifodalovchi moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan (Samara davlat iqtisodiyot universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahon miqyosida hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirishda qarz va kapital yondashuvlarini qo'llash; buxgalteriya hisobida shartli majburiyatlarning moliyaviy natijalarga ta'sirini baholash; auditorlik tekshiruvlarida majburiyatlar bo'yicha muhim buzib ko'rsatishlar riskini

pasaytirishda stratifikatsiyani qo'llash; ekologik majburiyatlarni tan olish va baholash jarayoni auditini takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlardan X.Anderson, N.S.Bezrukix, V.Bound, T.Drujilovskaya, N.Fribus, V.Ivashkevich, O.Jukova, T.Karpova, D.Kisil, N.Kondrakov, D.Kolduell, L.Koval, O.Koval, I.Lepetan, Y.Negashev, B.Nidlz, O.Nikolayeva, V.Paliy, N.Pravdiuk, M.Pyatov, Y.Sokolov, O.Smagina, O.Zelenina, A.Sheremet, T.Shishkova, S.Chikurova kabilar tadqiqot ishlarini olib borishgan⁴.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan N.Abdusalomova, A.Avlokulov, A.Amirov, A.Vahobov, A.Ibroximov, N.Ishonqulov, A.Karimov, N.Karimov, A.Kozimjonov, S.Maxmudov, M.Mamatqulov, U.Nurmanov, A.Pardayev, M.Pardayev, A.Tuychiyev, S.Tashnazarov, I.Qo'ziyev, B.Hamdammov, K.O'razov tomonidan buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan⁵.

⁴ Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. / пер.с англ. А.В.Чмеля, Д.Н.Исламгулова; под. ред. проф. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 495 с.; Bounds, Will, "A Comprehensive Analysis of Financial Accounting Through Case Studies" (2023). Honors Theses. 2820; Zelenina, O. O. (2012). Accounting and analysis of the formation and use of borrowed capital. Extended abstract of candidate's thesis: 08.00.04. Zhitomir State Technological University; Dollar, Cecil Jr, "Accounting for Liabilities." (1963). LSU Historical Dissertations and Theses. 837. https://repository.lsu.edu/gradschool_disstheses/837; Organization of accounting of assets, liabilities and results of the enterprise activities: monograph. Košice: Vysoká škola bezpečnostného manažérstva v Košiciach, 2023. – 389 p; Бухгалтерский учет: учебник / Н.С.Безруких, В.Б.Ивашкевич, Н.П.Кондраков и др.; Под. Ред. П.С.Безруких. М.: Бухгалтерский учет, 1996. -576 с.; Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. – Москва: ИНФРА-М, 2003. – 454 с.; Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. –М.: «Финансы и статистика», 2000. 36-б.; Карпова Т.П. Управленческий учет. – Москва: Аудит, Изд. Объед. ЮНИТИ, 1998. – 346 с.; Николаева О.Е., Шишкова Т.В. Управленческий учет. 2-е изд., испр. и дополн. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 336 с.; Пятков М.Л. Управление обязательства организации. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 256 с.; Шеремет А.Д., Негашев Е.В. Методика финансового анализа. М.: ИНФРА-М, 1999. -250 с.; Дружиловская Т.Ю. Гармонизация финансовой отчетности: теория и российская практика. Диссертации доктор экономических наук 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика. Нижний Новгород. 2009 г. 467 с.; Фрибус Н.В. Бухгалтерский учет и аудит экологических обязательств угледобывающих предприятий. Дисс.кандидат наук. 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика. "НИНХ". 2020 г. 190 с.; Жукова О.В. Обеспечение прозрачности предоставления в бухгалтерской отчетности нефинансовых обязательств коммерческих организаций. Дисс.кандидат наук. 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика. "ФГБОУ". 2022 г. 167 с.; Чикурова С.С. Внутренний аудит рисков формирования оценочных резервов и обязательств в коммерческих организациях. Дисс.кандидат наук. 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика. "ФГБОУ". 2019 г. 169 с.; О.Ю.Смагина. Развитие учета, управленческого контроля налоговых расчетов и обязательств коммерческих организаций. Дисс.кандидат наук. 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика. "ФГБОУ". 2019 г. 220 с.

⁵ Абдусаломова Н.Б. Бошқарув ҳисоби / Ўқув қўлланма – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти–2019. – 110 б.; Авлокулов А.З. Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2019. – 71 б.; Амиров А.А. Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида мажбуриятлар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. PhD дисс. автореферати. 08.00.08 - «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит». Тошкент. 2022 йил. 53 б.; Ваҳобов А.В., Иброҳимов А.Т., Ишонкулов Н.Ф. Молиявий ва бошқарув таҳлили. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2005. -480 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 152 б.; Каримов Н.Ф. Тижорат банкларида ички аудитни ташкил қилиш ва унинг услубиётини такомиллаштириш муаммолари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2007. – 36 б.; Козимжонов А. Хўжалик юритувчи субъектларда қарз мажбуриятлари бўйича харажатлар ҳисобини такомиллаштириш. PhD дисс. автореферати. 08.00.08 - «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит». Тошкент. 2022 йил. 51 б.; Махмудов С.К. Молиявий инструментларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш: Иқт.фан.док. дис. ...автореф. – Тошкент: 2024. -82 б.; Маматкулов М.Ш. Коммунал хизмат кўрсатиш тизимида бошқарув ҳисоби услубиётини такомиллаштириш. Монография. –Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2021. – 216 б.; Нурманов У.А. Жорий активлар таҳлили методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д.

Majburiyatlar hisobini takomillashtirish bo'yicha A.Tuychiyev o'z ilmiy izlanishlarida «xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlarni kamaytirish maqsadida ular holati va harakatini tahlil qilish ko'rsatkichlari tizimi»⁶ga keng to'xtalib o'tgan. S.Maxmudov ilmiy ishlarida «moliyaviy operatsiyalarida pul oqimini diskontlash orqali auditorlik tekshiruvlarini optimallashtirish hamda audit risklarini kamaytirish»⁷ga alohida e'tibor qaratib o'tgan. S.Tashnazarov tomonidan «zamonaviy yondashuvlar asosida moliyaviy hisobotning aktivlari va majburiyatlari qiymatini baholash hamda xususiy kapitali elementlari o'zgarishini hisobga olishning uslubiy tartib-qoidalari»⁸ ishlab chiqilgan. A.Kozimjonovning ilmiy ishlarida «qarz majburiyatlari bo'yicha xarajatlar hisobini yuritishda xarajatlarni «aktiv sifatida tan olinadigan xarajatlar» va «aktiv sifatida tan olinmaydigan xarajatlar»da hisobga olib borish»⁹ masalalari yoritib berilgan. A.Amirov o'zining tadqiqot ishida «foйда solig'i bo'yicha majburiyatlarni hisobot davrida to'g'ri aks ettirish va shaffofligini ta'minlashda tahliliy ishchi schyotlarni amaliyotga joriy qilgan»¹⁰.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida aynan majburiyatlar hisobi va auditori metodologiyasi bo'yicha bir qator masalalar o'z yechimini topmagan. Jumladan, baholangan majburiyatlar hisobini yuritish, ijara bo'yicha majburiyatlar hisobini tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha baholash shuningdek, majburiyatlar auditida tahliliy amallarni qo'llash masalalari to'liq tadqiq qilinmagan. Aynan shu sababli, ilmiy-tadqiqot mavzusi bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashishi sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent

илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2023. – 74 б.; Пардаев А.Х. Бошқарув ҳисоби. – Т.: Академия, 2002. – 172 б.; Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. 2-нашр. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021. 588 бет; Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолари. Монография. –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. 272 б. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. – Самарқанд . 2018. 271 б.; Қўзиев И.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аудиторлик ҳисоботини тузиш ва умумлаштириш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2017. – 70 б.; Хамдамов Б.К. Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳисоб ва ҳисобот тизимида аудиторлик назоратини ривожлантиришнинг услубий асослари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2007. – 33 б.; Ўразов К.Б. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида бухгалтерия ҳисобининг концептуал масалалари. – Тошкент: Фан, 2005. – 236 б.

⁶ Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолари.– и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Тошкент. 2011 йил. – 60 б.

⁷ Махмудов С.К. Молиявий инструментларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш: Иқт.фан.док. дис. ...автореф. – Тошкент: 2024. -82 б.

⁸Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. – Самарқанд . 2018. 271 б.

⁹Козимжонов А. Хўжалик юритувчи субъектларда қарз мажбуриятлари бўйича харажатлар ҳисобини такомиллаштириш. PhD дисс. автореферати. 08.00.08 - «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит». Тошкент - 2022 йил. 51 б.

¹⁰Амиров А.А. Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида мажбуриятлар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. PhD дисс. автореферати. 08.00.08 - «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит». Тошкент. 2022 йил. 53 б.

davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditining nazariy hamda metodologik muammolarini tadqiq etish;

aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish hamda ularga oid axborotlarni yoritib berish jarayonlarini tadqiq qilish;

moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularga oid axborotlarni moliyaviy hisobotlarda yoritib berish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

baholangan majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

majburiyatlar auditini o'tkazishda tahliliy amallarni qo'llashni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

majburiyatlar auditida muhim buzib ko'rsatishlar riskini aniqlashda ichki nazorat tizimini tekshirish jarayonini takomillashtirishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar auditini o'tkazish jarayonini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliya-xo'jalik faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, ekonometrika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

moliyaviy hisobotda axborotlarning shaffoflik darajasini oshirish maqsadida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning 0620 va 0820-satrlariga "Ijara bo'yicha uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar" elementlarini kiritish taklif etilgan;

ichki va tashqi foydalanuvchilarning oqilona qarorlar qabul qilishlarini ta'minlash maqsadida "Uzoq va qisqa muddatli baholangan majburiyatlar" elementlarini moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning 0640 va 0840-satrlariga kiritish asoslangan;

amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha baholanadigan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy holat to'g'risida hisobotda aks ettirish taklif etilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari buxgalteriya hisobida moliyaviy majburiyatlarni tan olish hamda ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish algoritmini qo'llash asoslangan;

moliyaviy hisobot auditida rezervlarning to'g'ri shakllanganligini aniqlash va dalillarning ishonchliligini oshirishda baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyentini qo'llash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning 0700 va 0930-satrlariga "Foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda baholanadigan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar" elementlarini kiritish taklif etilgan;

majburiyatlar auditida uchraydigan muhim buzib ko'rsatishlar risklarini aniqlash hamda ularni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida baholangan majburiyatlar auditini xalqaro standartlar talablari asosida o'tkazish bosqichlarini qo'llash taklif etilgan;

auditorlik tekshiruvlarida baholangan majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ichki nazorat tizimini baholash savolnomasini qo'llash taklif qilingan;

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatiga baho berishda ekonometrik modellashtirish usullari asosida to'lovga layoqatlilik darajasiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajalariga aniqlik kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumtanolinganligi va maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga oid ma'lumotlar hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlar hamda aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirishda foydalanishga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar talablari asosida isloh qilish hamda mamlakatimizda «Moliyaviy hisob», «Moliyaviy hisobot», «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari», «Audit» va «Moliyaviy hisobot audit» fanlarining o'quv-uslubiy ta'minotini ilmiy va nazariy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilishi hamda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarida sohaga oid fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Moliyaviy hisobotda axborotlarning shaffoflik darajasini oshirish maqsadida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning 0620 va 0820-satrlariga "Ijara bo'yicha

uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar” elementlarini kiritishga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug‘i (Adliya vazirligida 2024-yil 4-noyabrda 3567-son bilan ro‘yxatga olingan) bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi Nizom”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 1 dekabrda 08/43-2-24968-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini yanada aniqroq va shaffof yoritib berishga hamda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarni ijara bo‘yicha uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarni aniq baholashlari uchun haqqoniy ma‘lumotlar bilan ta‘minlash imkoniyati yaratilgan;

ichki va tashqi foydalanuvchilarning oqilona qarorlar qabul qilishlarini ta‘minlash maqsadida “Uzoq va qisqa muddatli baholangan majburiyatlar” elementlarini moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning 0640 va 0840-satrlariga kiritishga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug‘i (Adliya vazirligida 2024-yil 4-noyabrda 3567-son bilan ro‘yxatga olingan) bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi Nizom”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 1 dekabrda 08/43-2-24968-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uzoq va qisqa muddatli baholangan majburiyatlar bo‘yicha rezervlarni tashkil etish hamda ularni aniq baholash orqali qonunchilikka muvofiqligini ta‘minlashga erishilgan;

amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha baholanadigan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy holat to‘g‘risida hisobotda aks ettirish bo‘yicha taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug‘i (Adliya vazirligida 2024-yil 4-noyabrda 3567-son bilan ro‘yxatga olingan) bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi Nizom”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 1 dekabrda 08/43-2-24968-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha baholanadigan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar miqdorini to‘liqroq tushunish hamda ularni boshqa tashkilotning moliyaviy hisobotlari bilan qiyoslash uchun barcha xususiyatlarini yoritib berish imkoniyati yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari buxgalteriya hisobida moliyaviy majburiyatlarni tan olish hamda ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish algoritmini qo‘llash bo‘yicha taklifdan «G‘alla-Alteg» AJda hisob siyosatini ishlab chiqishda foydalanilgan («G‘alla-Alteg» AJning 2024 yil 19 dekabrda 03/598-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida moliyaviy hisobotlarda moliyaviy majburiyatlar miqdori bo‘yicha ma‘lumotlarni shaffof hamda haqqoniy yoritib berishga erishilgan;

moliyaviy hisobot auditida rezervlarning to‘g‘ri shakllanganligini aniqlash

va dalillarning ishonchliligini oshirishda baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyentini qo'llashga oid taklifdan O'zbekiston Auditorlar palatasi tomonidan tahliliy amallarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Auditorlar palatasining 2024 yil 27 dekabrda 115-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida baholangan majburiyatlarning qoplanish darajasini va rezervlarning haqqoniy shakllanganligini baholash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta respublika va 15 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 223 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obykti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Majburiyatlar hisobi va auditining nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida majburiyatlar hisobining nazariy asoslari hamda majburiyatlar auditini o'tkazish bosqichlari va yo'nalishlari yoritilgan.

Majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarining eng muhim elementlaridan biri ekanligini inobatga olgan holda, majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini tashkil etishga qo'yiladigan talablar qonunchilik hujjatlari, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobot hamda auditning xalqaro standartlari bilan belgilanadi.

Buxgalteriya hisobida majburiyatlarni hisobga olish hamda ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Jumladan, B. Nidlz, X. Anderson, D. Kolduell majburiyatlar toifasini quyidagicha ochib beradilar: «Majburiyatlar firma tomonidan turli operatsiyalar natijasida vujudga keladi va ko'rsatilgan tovar yoki xizmatlar uchun keyingi

to'lovlarning huquqiy asosi hisoblanadi»¹¹.

Shuningdek, T. Drujilovskaya va T. Igoninaning ilmiy izlanishlarida «Majburiyat – tashkilotning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzi bo'lib, uni to'lash muqarrar ravishda iqtisodiy nafni o'z ichiga olgan resurslarning kamayishiga olib keladi»¹², deb ta'kidlangan.

Iqtisodchi olim O. Plotnikovaning fikricha, «Majburiyat–shartnomalar shartlaridan kelib chiqadigan va mavjudligi faqat kelajakdagi hodisalarning sodir bo'lishi yoki sodir bo'lmasligi bilan tasdiqlanadigan javobgarlikdir»¹³.

Yetuk iqtisodchi olimlar Y. Sokolov va M. Pyatovning ta'kidlashicha, «Majburiyat – iqtisodiy hayot fakti bo'lib, bu haqdagi ma'lumotlar buxgalteriya hisobini yurituvchi korxonaning majburiyatlarini aks ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi»¹⁴.

Professor A. Tuychiyev dissertasiya ishida «Majburiyat deyilganda, xo'jalik yurituvchi bir subyektning boshqa subyektga mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va boshqa harakat natijasida yuzaga keladigan hamda keyingi o'zaro hisoblashishlarga asos bo'luvchi huquqiy munosabatlar tushuniladi»¹⁵, deb ta'riflaydi.

Iqtisodiyot fanlari doktori S. Maxmudovning ilmiy-tadqiqot ishida «Obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish qiymati bilan belgilangan qiymat o'rtasidagi farq shunday amortizatsiyalangan bo'lishi kerakki, ularni qoplash muddati yetib kelishiga balans qiymati belgilangan qiymati teng bo'lishligi inobatga olinishi lozim va uning muddati tugaganda qo'shimcha to'lov paydo bo'lmasligi kerak»¹⁶, deb ta'kidlangan.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr va mulohazalarni hamda majburiyatlar atamasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda buxgalteriya hisobida majburiyatlar, odatda, o'tgan operatsiyalar yoki hodisalar natijasida korxonaning tashqi va ichki tomonlarga qarzi bo'lgan majburiyatlar sifatida aniqlanadi hamda majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelajakda, odatda pul, tovarlar yoki xizmatlarni o'tkazish yo'li bilan to'lashi kerak bo'lgan summalarini ifodalaydi, deb ta'riflasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida mavjud majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlarning salmog'i yuqori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxona va

¹¹ Нидлз Б. Принципы бухгалтерского учета / Б.Нидлз, Х.Андерсон, Д.Колдуэлл : пер с англ.; [под ред. Я.В. Соколова]. – 2-е изд., стереотип. – М. : Финансы и статистика, 1997. 496 с.

¹² Дружиловская, Т.Ю. Бухгалтерский учет обязательств организаций в системах российских и международных стандартов: теоретический аспект / Т.Ю. Дружиловская, Т.В. Игонина // Международный бухгалтерский учет. – 2012. – № 45. – С. 2-13. – ISSN 2073-5081.

¹³ Плотникова О.В. Теория обязательств в бухгалтерском учете // О.В. Плотникова // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. – 2012. – № 4 (43). – С. 141-144. –ISSN 1994-5094.

¹⁴ Соколов Я.В. Бухгалтерский учет: учебник / Я.В. Соколов, М.Л. Пятков. – Москва : Проспект, 2008. – 232 с. – ISBN 978-5-392-00148-4.


¹⁵ Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолари. Монография. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. 272 б.

¹⁶ Махмудов С.К. Молиявий инструментларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш: Иқт.фан.док. дис. ...автореф. – Тошкент: 2024. -82 б.

tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi dinamikasi quyidagi rasmda keltirib o‘tilgan (1-rasm).

1-rasm ma’lumotlarida keltirilganidek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning kreditorlik qarzlari miqdori oxirgi besh yillikda o‘shish tendensiyasiga ega.

Xususan, 2020 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, kreditor qarzdorlikning umumiy miqdori 121958,4 mlrd. so‘m, 2021 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, 175615 mlrd. so‘m, 2022 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, 229599,9 mlrd. so‘m, 2023 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, 294558,5 mlrd. so‘m, 2024 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, 323202,3 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. Tahlil natijasiga ko‘ra, 2024 yilda 2020 yilga nisbatan kreditorlik qarzlari miqdori 265 foizga ortganligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. Korxona va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi dinamikasi (1 sentyabr holatiga, mlrd so‘m)¹⁷

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida majburiyatlar ularning iqtisodiy mohiyati, muddatlari va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda tasniflanadi (1-jadval).

Buxgalteriya hisobning milliy standartlari asosidagi tasnif O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga majburiyatlarini samarali boshqarishga, qonunchilik talablari va buxgalteriya hisobi standartlariga rioya qilishga yordam beradi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosidagi tasnif moliyaviy hisobotning shaffofligini ta‘minlaydi va manfaatdor tomonlarga tashkilotning moliyaviy holatini baholashda yordam beradi.

¹⁷ www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

BHMS hamda MHXS asosida majburiyatlar tasnifi¹⁸

№	Buxgalteriya hisobining milliy standartlari	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
1.	Majburiyatning muddati bo'yicha tasnifi: - uzoq muddatli majburiyatlar; - joriy majburiyatlar.	Majburiyatning muddati bo'yicha tasnifi: - qisqa muddatli majburiyatlar; - uzoq muddatli majburiyatlar.
2.	Majburiyatning turlari bo'yicha tasnifi: - moliyaviy majburiyatlar; - nomoliyaviy majburiyatlar.	Majburiyatning turlari bo'yicha tasnifi: - moliyaviy majburiyatlar; - nomoliyaviy majburiyatlar.
3.	Majburiyatning xususiyati bo'yicha tasnifi: - aniq majburiyatlar; - shartli majburiyatlar.	Majburiyatning xususiyati bo'yicha tasnifi: - aniq majburiyatlar; - baholangan majburiyatlar; - shartli majburiyatlar.
4.	Majburiyatning normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha tasnifi: - normativ-huquqiy hujjatlar asosidagi majburiyatlar; - shartnoma bo'yicha majburiyatlar.	Majburiyatning normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha tasnifi: - normativ-huquqiy hujjatlar asosidagi majburiyatlar; - kelishuv asosidagi majburiyatlar.
5.	Majburiyatning yuzaga kelishi bo'yicha tasnifi: - yuridik javobgarlik asosidagi majburiyatlar; - konstruktiv javobgarlik asosidagi majburiyatlar.	Majburiyatning yuzaga kelishi bo'yicha tasnifi: - yuridik javobgarlik asosidagi majburiyatlar; - konstruktiv javobgarlik asosidagi majburiyatlar.
6.		Majburiyatning likvidlik darajasi bo'yicha tasnifi: - yuqori likvidli majburiyatlar; - past likvidli majburiyatlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini ishonchli, shaffof hamda haqqoniy yuritilishini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish amaliyotida bir qator muhim islohotlar olib borilmoqda. Mazkur audit sohasidagi islohotlarning

¹⁸ Muallif ishlanmasi

zamidida esa mamlakatimizning investitsion siyosatini to'liq qo'llab-quvvatlash va auditorlik tashkilotlariga bo'lgan ishonch darajasini oshirish ham yotgani bejiz emas.

Majburiyatlar auditi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholashning muhim elementi bo'lib, ichki va tashqi foydalanuvchilarning moliyaviy hisobotga ishonchini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining audit amaliyotida hozirgi paytda auditning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobot auditi o'tkazilmoqda. Bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan majburiyatlar auditi borasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Majburiyatlar auditiga bag'ishlangan darslikda quyidagilar keltirib o'tilgan: «Majburiyatlar auditi, birinchi navbatda, barcha aniq majburiyatlar to'g'ri hisobga olinganligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim, chunki majburiyatlar bo'yicha ma'lumotlarda muhim buzib ko'rsatish holatlarining mavjudligi moliyaviy hisobotning to'g'riligi va haqqoniyligini buzadi»¹⁹.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar R.P.Buliga hamda M.V.Melnik ilmiy-tadqiqot ishlarida majburiyatlarni tekshirish jarayonlarini yoritib berishga harakat qilgan. Ularning ta'kidlashicha, «majburiyatlar auditining asosiy vazifasi tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining risklarini tobora ko'proq aniqlashga qaratilmoqda, bu esa tekshirilayotgan korxonalar va ularning sheriklari uchun muayyan turdagi faoliyat va bitimlarning salbiy oqibatlari to'g'risida ogohlantirish imkonini beradi»²⁰.

Iqtisodchi olim U.A.Shirinovning fikriga ko'ra, «moliyaviy majburiyatlar auditini o'tkazish jarayonida auditor vazifalari qatoriga balans hisobotida aks ettirilgan kreditorlik qarzlari va ular bo'yicha hisob-kitoblar summasi to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish bilan bir qatorda, balans hisobotining shu elementlar ishonchli bo'lishi va moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlashi lozim bo'lgan ichki nazorat tizimining sifatini tekshirish va baholash ham kiradi»²¹.

Yuqorida keltirilgan fikrlarda majburiyatlar auditining umumiy jihatlari keltirilgan. Biroq, baholangan majburiyatlar auditi masalalariga keng e'tibor qaratilmagan.

Baholangan majburiyatlar auditi auditorga majburiyatlarni baholashning ishonchliligi va muvofiqligini tekshirishga yordam beradigan bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Baholangan majburiyatlar auditining asosiy bosqichlari hamda ularning qisqacha tavsifi 2-jadvalda keltirib o'tilgan.

Baholangan majburiyatlar auditining har bir bosqichi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash va moliyaviy ma'lumotlardan foydalanuvchilarning ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁹ GUIDANCE NOTE ON AUDIT OF LIABILITIES. Published in December, 1995. Issue of 'The Chartered Accountant'. Handbook of Auditing Pronouncements-II.

²⁰ Булыга Р.П., Мельник М.В., Аудит бизнеса. Практика и проблемы развития. Монография. 2022 г. ЮНИТИ-ДАНА, ISBN 978-5-238-02383-0, 264 стр.

²¹ Ширинов У.А. Молиявий мажбуриятлар аудитини методологик асослари. "Экономика и социум" №6(97)-2022. www.iupr.ru

Baholangan majburiyatlar auditini o'tkazish bosqichlari²²


Bosqich	Bosqich nomi	Bajariladigan ishlar	Audit amallari
1-bosqich	Rejalashtirish	1. Risklarni baholash va baholangan majburiyatlarning xususiyatlarini aniqlash. 2. Auditorlik tekshiruvining ko'limi va sohalarini aniqlash. 3. Audit strategiyasini ishlab chiqish va auditorlik tekshiruvi uchun zarur resurslarni aniqlash.	Nazorat testlash, mohiyatiga ko'ra audit amallari
2-bosqich	Ichki nazorat tizimini baholash	1. Xo'jalik yurituvchi subyektning nazorat muhiti va operatsion faoliyatini o'rganish. 2. Baholangan majburiyatlarni baholash bilan bog'liq ichki nazorat qoidalarini tahlil qilish. 3. Javobgarlik yuklaydigan hodisani baholash va ularning natijalarining umumiy tahlilini o'tkazish.	Nazorat testlash
3-bosqich	Baholangan majburiyatlarni baholash metodologiyasining to'g'riligini tasdiqlash	1. Baholangan majburiyatlarni baholashda foydalaniladigan metodologiya va modellarni tasdiqlash. 2. Baholash usullarining to'g'ri qo'llanilganligi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va qoidalariga rioya etilganligini tahlil qilish.	Mohiyatiga ko'ra audit amallari
4-bosqich	Taxminlarni baholash	1. Majburiyatlarni baholashda qo'llanilgan taxminlarning oqilonaligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish. 2. Taxminlarning haqiqiy holatlar va tashqi sharoitlarga muvofiqligini tahlil qilish.	Nazorat testlash, mohiyatiga ko'ra audit amallari
5-bosqich	Dalillar to'plash	1. Majburiyatlarni baholashning to'g'riligi va haqqoniyligini tasdiqlovchi yetarli va mos auditorlik dalillarini to'plash. 2. Baholangan majburiyatlar qiymati to'g'riligi bo'yicha nazorat testlashni o'tkazish hamda taqdim etilgan ma'lumotlarning arifmetik aniqligini tekshirish.	Nazorat testlash, mohiyatiga ko'ra audit amallari
6-bosqich	Muhim buzib ko'rsatish riski darajasini hamda nomuvofiqliklarni baholash	1. Baholangan majburiyatlar bilan bog'liq potensial risk va nomuvofiqliklarni aniqlash. 2. Ushbu risklarning moliyaviy hisobotlarning ishonchligiga ta'sirini baholash. 3. Aniqlangan risklarga nisbatan auditorning javob harakatlarini qo'llash	Mohiyatiga ko'ra audit amallari
7-bosqich	Xulosa va tavsiyalarni shakllantirish	1. Baholangan majburiyatlar audit natijalari bo'yicha xulosalarni shakllantirish. 2. Tekshiruv jarayonida aniqlangan muammolarni, baholash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni va boshqa muhim holatlarni aks ettiruvchi auditorlik hisobotini tayyorlash.	Mohiyatiga ko'ra audit amallari
8-bosqich	Yakuniy bosqich	1. Yakuniy audit amallarni bajarish, shu jumladan audit natijalarini xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan muhokama qilish. 2. Baholangan majburiyatlar audit bo'yicha yakuniy xulosani tayyorlash va subyekt rahbariyatiga taqdim etish.	Mohiyatiga ko'ra audit amallari

Yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida auditorlik tekshiruvida baholangan majburiyatlar hisobini tekshirish moliyaviy hisobot audit natijalarining to'g'ri aks ettirilishiga hamda ishonchli va xolisona auditorlik xulosasining shakllantirilishiga imkon yaratadi.

²² Muallif ishlanmasi.

Dissertasiyaning «**Majburiyatlar hisobi va auditining metodologik muammolari**» nomli ikkinchi bobida majburiyatlarni tan olish, baholash va ularga doir axborotlarni ochib berishning uslubiy jihatlari, buxgalteriya hisobida moliyaviy majburiyatlarni tan olish va baholash xususiyatlari hamda majburiyatlar auditida ichki nazorat tizimini oʻrganish hamda baholash masalalari keltirib oʻtilgan.

Majburiyatlarni toʻgʻri va aniq tasniflash majburiyatlar hisobining toʻgʻri yuritilishiga hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilishiga muhim hissa qoʻshadi. Shu sababli majburiyatlarning vujudga kelishi va tan olinishi masalalarini tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).




2-rasm. Buxgalteriya hisobida moliyaviy majburiyatlarni tan olish algoritmi²³

²³ Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy majburiyatlarning bir qismi sifatida hozirgi paytda amalda (qonuniy) mavjud bo'lgan va kelgusida hech qanday hodisalarga bog'liq bo'lmagan shartsiz majburiyatlarga ajratiladi. Bunday majburiyatlar aniq majburiyatlar hisoblanadi hamda to'g'ridan-to'g'ri balansda moliyaviy hisobot elementi sifatida tan olinadi. Boshqa majburiyatlar balansda ham e'tirof etiladigan, lekin tartibga soluvchi modda sifatida yoki moliyaviy hisobotning elementi sifatida tan olinadigan baholangan majburiyatlar, shuningdek, moliyaviy hisobotning bir qismi sifatida oshkor qilinadigan shartli majburiyatlar bo'lishi mumkin.

Moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda yoritib berishda, avvalo, ularni dastlabki va keyingi baholash orqali haqqoniy qiymatini aniqlash maqsadga muvofiq. Moliyaviy majburiyatlarning amortizatsiyalangan qiymatini hisoblash algoritmi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Moliyaviy majburiyatlarning amortizatsiyalangan qiymatini hisoblash algoritmi²⁴

Amortizatsiyalangan qiymatni hisoblash ketma-ketligi asosida moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritish ularni moliyaviy hisobotlarda ishonchli va haqqoniy aks ettirish imkoniyatini beradi.

Auditorlik tekshiruvlarida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash orqali moliyaviy hisobotlarda mavjud muhim buzib ko'rsatishlar riski darajasini oqilona baholash imkoni paydo bo'ladi. Shu sababli, majburiyatlar auditida ham ichki nazorat tizimini belgilangan savolnomalar orqali baholash maqsadga muvofiq.

²⁴ Muallif ishlanmasi.

Baholangan majburiyatlar bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha ichki nazorat tizimini baholash savolnomasi²⁵

Savollar	Javoblar	
	Ha	Yo‘q
1. Joriy nazorat vositalari		
1.1. Majburiyatlarni inventarizatsiya qilish tasdiqlangan rejaga muvofiq, shuningdek, muayyan majburiyat bilan bog‘liq yangi hodisalar yuzaga kelganda amalga oshiriladimi?	+	
1.2. Aktivlar va buxgalteriya hisobi yozuvlariga, shuningdek, amaliy dasturlar va kompyuter axborot tizimlariga kirishni cheklash talablari to‘liq bajarilganmi?	+	
1.3. Xodimlar bilan moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnomalar tuzilib, to‘liq hajmda nazorat qilinmoqdami?	+	
1.4. Mulk va hujjatlarning saqlanishi uchun sharoitlar to‘liq ta‘minlanganmi (seyflar, jihozlangan omborlar, arxivlar, signalizatsiya tizimlari, xavfsizlik xizmati mavjudmi)?		+
1.5. Xodimlarning til birlashtirishi orqali joriy ichki nazorat tartib-qoidalarini chetlab o‘tish imkoni mavjudmi?	+	
1.6. Ichki nazoratni amalga oshirish uchun javobgarlik yuklangan shaxslar tomonidan o‘z vakolatlarini suiiste‘mol qilish ehtimoli mavjudmi?		+
1.7. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlarni baholash uchun belgilangan tartib va metodika mavjudmi?	+	
1.8. Majburiyatlarni baholashda aniq belgilangan usullar mavjudmi va hisob siyosatida aks ettirilganmi?	+	
1.9. Boshqaruvning turli darajalarida moddiy javobgarlikni taqsimlash tartibi mavjudmi?		+
2. Boshlang‘ich hisob hujjatlari va ma‘lumotlarni tayyorlash bosqichida xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish		
2.1. Xo‘jalik operatsiyalarining mavjudligi hamda haqiqiyliги bo‘yicha ichki audit tekshiruvlari muntazam ravishda amalga oshiriladimi?		+
2.2. Reglamentlar va normalar, standartlarga muvofiqlik muntazam ravishda tekshiriladimi?		+
2.3. Aktivlar va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligini tekshirish natijalari muntazam ravishda buxgalteriya hisobi bilan taqqoslanadimi?	+	
2.4. Hujjatlarni rasmiylashtirishda belgilangan talablarga rioya qilinadimi va hujjatlarni ketma-ket raqamlash qo‘llaniladimi?	+	
2.5. Xo‘jalik operatsiyalarining o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda tekshiriladimi va muvofiqlashtiriladimi?	+	
2.6. Analitik hisob va aylanma qaydnomalar hamda buxgalteriya yozuvlarining arifmetik aniqligi muntazam tekshiriladimi?	+	
2.7. Baholangan majburiyatlarni baholash bilan bog‘liq risklar va noaniqliklarni baholash tartibi mavjudmi?		+
3. Ichki nazorat funksiyalarining bajarilishini tekshirish		
3.1. Baholangan majburiyatlar hisobini yuritishning hisob siyosati va uning elementlariga muvofiqligi tizimli ravishda tekshiriladimi?	+	
3.2. To‘satdan o‘tkaziladigan inventarizatsiya va boshqa tekshiruvlar tizimli ravishda amalga oshiriladimi?		+
3.3. Lavozim yo‘riqnomalariga rioya qilish muntazam ravishda nazorat qilinadimi?		+
3.4. Tugallangan xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha birlamchi hujjatlar mavjudligi tizimli ravishda tekshiriladimi?	+	
3.5. Baholangan majburiyatlarni shakllantirish va baholashning maqsadga muvofiqligi tizimli tekshirish hamda solishtirish orqali amalga oshiriladimi?	+	
3.6. Noodatiy operatsiyalar tizimli ravishda nazorat qilinadimi?		+
3.7. Majburiyatlarni baholash uchun muayyan mas‘ul shaxs tayinlanganmi? Baholashlarning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun vakolatli lavozimlar va shaxslar mavjudmi?		+
3.8. Oldingi yillar tajribalari va audit natijalari asosida javobgarlikni baholash jarayonini takomillashtirish va fikr-mulohazalarni taqdim etish mexanizmlari mavjudmi?	+	

²⁵ Muallif ishlanmasi.

Baholangan majburiyatlar hisobini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda ichki nazorat tizimining har bir elementi bo'yicha ishlab chiqilgan savolnomalarda baholangan majburiyatlar bilan bog'liq jarayonlarning o'z ichiga qamrab olinishi muhim ahamiyatga egadir (3-jadval).

Yuqorida keltirilgan ichki nazorat tizimini tekshirish bo'yicha savolnomalar auditorga xo'jalik yurituvchi subyektda baholangan majburiyatlar bo'yicha xo'jalik operatsiyalarining qay darajada aks ettirilganligini hamda mazkur baholangan majburiyatlarning to'g'ri baholanishi va hisobga olinishini ta'minlash uchun ichki nazorat tizimining mavjudligini hamda uning samaradorligini baholashga yordam beradi.

Dissertasiyaning «**Majburiyatlar hisobi va auditining amaliy jihatlar**» nomli uchinchi bobida majburiyatlar hisobining amaldagi holati, majburiyatlar auditida tahliliy amallarni qo'llash yo'nalishlari, don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda to'lovga layoqatlilikning ekonometrik tahlili keltirib o'tilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiyatlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, majburiyatlar tarkibida baholangan majburiyatlarni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotgan bo'lsa-da, mazkur turdagi majburiyatlar hisobini yuritishning metodologik asoslari to'liq yaratilmaganligi buxgalteriya hisobida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.


Baholangan majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlar umumiy majburiyatlarining muhim va ajralmas qismi sifatida ifodalanishi lozim va ularni buxgalteriya hisobida tan olish hamda moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish moliyaviy holatning shaffof va haqqoniy yoritib berilishiga zamin yaratadi. Bu esa, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning baholangan majburiyatlari - bu o'tgan voqea-hodisalar natijasida yuzaga kelgan, ammo ularni bartaraf etish kelajakdagi noaniq hodisalarga bog'liq bo'lgan va ularni to'lash miqdori yoki muddatini ishonchli darajada aniqlash mumkin bo'lgan majburiyatlardir. Bunday majburiyatlar majburiyatning ehtimoliy miqdorini baholashni talab qiladi va har xil turdagi kafolatlar, da'volar, restrukturizatsiya, soliq risklari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

“Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” nomli 37-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq, buxgalteriya hisobida baholangan majburiyatlar hisobga olinishi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida oshkor etilishi lozim. Ular moliyaviy hisobotning majburiy elementi bo'lib, moliyaviy holat va moliyaviy natijalar ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Fikrimizcha, baholangan majburiyatlar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning eng muhim elementlaridan biri hisoblanib, ular investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bilan bog'liq potensial risk va majburiyatlarni tushunishga yordam beradi.

Baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olish va aks ettirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (4-rasm).



4-rasm. Baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olish va aks ettirish bosqichlari²⁶

Baholangan majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida, odatda, buxgalteriya balansida uning aniq qiymati, shu bilan birga, baholangan majburiyatlarning mohiyati, ularning kutilayotgan muddati va xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini tushunish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar tegishli ishchi hujjatlarda ochib berilishi maqsadga muvofiqdir.


Umuman olganda, baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri tan olish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi va to'liqligini ta'minlash uchun muhim sanaladi.

Moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya xizmati xodimlari tomonidan tayyorlanadi hamda ularning ishonchliligi auditorlar tomonidan tasdiqlanadi va moliyaviy hisobot asosida oqilona iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun xorijiy va mahalliy investorlarga ma'lumot berish uchun mo'ljallanadi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazayotgan tashqi auditorning asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti xato yoki firibgarlik holatlarini keltirib chiqaruvchi jiddiy buzib ko'rsatishlardan xoli ekanligini aniqlash uchun yetarli darajada dalillarni to'plash va keyinchalik ushbu moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi bo'yicha fikr bildirish hisoblanadi. Moliyaviy

²⁶ Muallif ishlanmasi.

hisobotning ishonchliligini ta'minlash hamda auditorlarning fikrlarini aniqligini oshirishda auditorlik dalillarini olishda tahliliy amallarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Tahliliy amallar auditorlik tekshiruvi jarayonida asosiy maqsadlarga erishishda muhim audit amalidir²⁷. Auditorlik tekshiruvda tahliliy amallarni qo'llashda yuqori darajada samaradorlikka erishish natijasida auditorlarga raqobat sharoitida ustunlikka erishish va javobgarlik riskini kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot ishida "Toshkentdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati, "Jizzaxdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati, "Dunyo-M" aksiyadorlik jamiyati hamda "G'alla-Alteg" aksiyadorlik jamiyatida joriy majburiyatlarning 2019-2023 yillar oralig'ida o'zgarishlarini tahlili quyidagi jadvalda yoritib berilgan (5-rasm).



5-rasm. "Toshkentdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati, "Jizzaxdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati, "Dunyo-M" aksiyadorlik jamiyati hamda "G'alla-Alteg" aksiyadorlik jamiyatida joriy majburiyatlarning qiymatining o'zgarishi, mlrd.so'mda²⁸

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, joriy majburiyatlar miqdori 2023 yilda 2019 yilga nisbatan "Toshkentdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida 184 mlrd.so'mga, "Jizzaxdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida 80 mlrd.so'mga, "Dunyo-M" aksiyadorlik jamiyatida 93 mlrd.so'mga hamda "G'alla-Alteg" aksiyadorlik jamiyati esa 18,5 mlrd.so'mga oshgan.

Buning asosiy sababi sifatida yuqorida tahlil qilinayogan aksiyadorlik jamiyatlarining joriy majburiyatlari tarkibida qisqa muddatli kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli qarzlarni hamda qisqa muddatli bank kreditlari salmog'ining oshib

²⁷ Hirst, D., & Koonce, L. (1996). Audit analytical procedures: A field investigation. Contemporary Accounting Research, 13(2), 457-486.

²⁸ "Toshkentdonmahsulotlari" AJ, "Jizzaxdonmahsulotlari" AJ, "Dunyo-M" AJ hamda "G'alla-Alteg" AJ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

borganligi bilan izohlash mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida kreditorlik qarzlari to'g'ri boshqarishni yo'lga qo'yish orqali moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishlariga erishiladi. Shu sababli, don mahsulotlarini qayta ishlovchi aksiyadorlik jamiyatlarining kreditorlik qarzlari aylanuvchanligini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq (4-jadval).

4-jadval

“Toshkentdonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJ hamda “G‘alla-Alteg” AJda kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi tahlili²⁹

№	Ko'rsatkichlar	“Toshkentdonmahsulotlari” AJ	“Jizzaxdonmahsulotlari” AJ	“G‘alla-Alteg” AJ
2019 yil				
1.	Sof tushum, ming so'm	245639432	204276386	239023335
2.	Hisobot davrida kalendar kunlari	365	365	365
3.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so'mda	36078320	12848802	19833702
4.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	53,6	23,0	30,3
2020 yil				
1.	Sof tushum, ming so'm	330526211	260419724	259687131
2.	Hisobot davrida kalendar kunlari	365	365	365
3.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so'mda	27508206	9295444	12890787
4.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	30,4	13,0	18,1
2021 yil				
1.	Sof tushum, ming so'm	391095099	232769853	254801606
2.	Hisobot davrida kalendar kunlari	365	365	365
3.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so'mda	23447647	12676966	16080266
4.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	21,9	19,9	23,0
2022 yil				
1.	Sof tushum, ming so'm	637471067	251537967	457104204
2.	Hisobot davrida kalendar kunlari	365	365	365
3.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so'mda	388626074	7597082	17235121
4.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	222,5	11,0	13,8
2023 yil				
1.	Sof tushum, ming so'm	480868958	96903882	353124373
2.	Hisobot davrida kalendar kunlari	365	365	365
3.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so'mda	80774316	19669110	8033687
4.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	61,3	74,1	8,3
O'zgarishi (2023 yilda 2019 yilga nisbatan)				
1.	Sof tushum, ming so'm	235229526	-107372504	114101038
2.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so'mda	44695996	6820308	-11800015
3.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	7,7	51,1	-22,0

4-jadvalda keltirib o'tilgan jadval ma'lumotlariga asosan, kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi 2023 yilda “Toshkentdonmahsulotlari” aksiyadorlik

²⁹ “Toshkentdonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJ hamda “G‘alla-Alteg” AJ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

jamiyatida 61,3 kun, “Jizzaxdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida 74,1 kunga hamda “G‘alla-Alteg” aksiyadorlik jamiyatida esa 8,3 kunni tashkil qilgan. Shuningdek, kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi 2019 yilda “Toshkentdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida 53,6 kunga, “Jizzaxdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida 23,0 kunga hamda “G‘alla-Alteg” aksiyadorlik jamiyatida esa 30,3 kunga teng bo‘lgan.

Shu bilan birga, kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi 2023 yilda 2019 yilga nisbatan “Toshkentdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida 7,7 kunga, “Jizzaxdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida 51,1 kunga oshganligini hamda “G‘alla-Alteg” aksiyadorlik jamiyatida esa 22,0 kunga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi ko‘rsatkichining yuqori ekanligi aksiyadorlik jamiyatlarining kreditorlar oldidagi qarzlarni qanchalik tez so‘ndirishi yoki to‘lashi mumkinligini ko‘rsatib beradi.

“Quyuv-mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi koeffitsiyenti tahlili quyidagi jadvalda yoritib berilgan (5-jadval).

5-jadval

“Quyuv-mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi tahlili³⁰

№	Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	O‘zgarishi (2023 yilda 2019 yilga nisbatan)
1.	Sof tushum, ming so‘m	114096139	180485485	238594472	200802025	283887861	169 791 722
2.	Hisobot davrida kalendar kunlari	365	365	365	365	365	0
3.	Kreditorlik qarzlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati, ming so‘m	93889351	105543256	99245933	107861421	247586415	153 697 064
4.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi	300,4	213,4	151,8	196,1	318,3	17,9

“Quyuv-mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi tahliliga e‘tiborimizni qaratsak, mazkur aksiyadorlik jamiyatida 2023 yilda kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi 318,3 kunga, 2022 yilda 196,1 kunga, 2021 yilda 151,8 kunga, 2020 yilda 213,4 kunga hamda 2019 yilda esa 300,4 kunga teng bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 17,9 kunga oshganligi salbiy holat hisoblanadi. Chunki mazkur kunlar qanchalik qisqa bo‘lsa, korxona majburiyatlarini qisqa muddat ichida darhol so‘ndirilayotganligidan dalolat beradi.

Ma‘lumki, to‘lovga layoqatlilik koeffitsiyenti xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga baho berishda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur koeffitsiyentning ekonometrik modellashtirish jarayonida qo‘llanilishi omillarning unga ta‘sir etish darajasini yuqori aniqlikda baholash imkonini beradi.

Ekonometrik modellashtirish metodologiyasi asosida ko‘p omilli ekonometrik tahlil o‘tkazish uchun quyidagi omillar tanlab olindi. Natijaviy omil –

³⁰ “Quyuv-mexanika zavodi” AJ ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

to'lovga layoqatlilik, koeffitsiyent (Y), ta'sir etuvchi omillar esa – joriy aktivlar, ming so'm (X_1), kreditorlik qarzlari, ming so'm (X_2) va qisqa muddatli qarzlari, ming so'm (X_3).

Aksiyadorlik jamiyatlarining to'lovga layoqatligiga ta'sir etuvchi omillar va ular asosida ekonometrik modellar tuzishda “Eng kichik kvadratlar” usulidan foydalaniladi. Ushbu usul asosida ekonometrik tadqiqotlar o'tkazish uchun omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkaziladi.

“Toshkentdonmahsulotlari” AJ ma'lumotlari asosida omillar bo'yicha o'tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

“Toshkentdonmahsulotlari” AJ ma'lumotlari bo'yicha tavsifiy statistika³¹

Ko'rsatkichlar	To'lovga layoqatlilik, koeffitsiyent, Y	Joriy aktivlar, ming so'm, X_1	Kreditorlik qarzlari, ming so'm, X_2	Qisqa muddatli qarzlari, ming so'm, X_3
O'rtacha	1.033333	2.21E+08	76877688	80291331
Mediana	1.020000	1.96E+08	31485576	72358946
Maksimum	1.110000	4.84E+08	3.89E+08	1.68E+08
Minimum	0.980000	86326920	21900123	8250000
Standart chetlanish	0.038730	1.41E+08	1.19E+08	63606960
Asimmet. koef.	0.622274	0.976528	2.352658	0.321229
Ekssess koef.	2.805833	2.543766	6.758149	1.484810
Jak-Bera koef.	6.594975	5.508466	13.59888	4.015707
Ehtimollik	0.009317	0.010071	0.001114	0.021786
Yalpi qiymat	9.300000	1.99E+09	6.92E+08	7.23E+08
Kvadrat qoldiqlar yig'indisi	0.012000	1.60E+17	1.12E+17	3.24E+16
Kuzatuvlar soni	9	9	9	9

Jadval ma'lumotlaridan kuzatuv olib borilayotgan tanlamadagi har bir o'zgaruvchining o'rtacha qiymatlari (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlarini (maximum, minimum) ko'rish mumkin. Masalan, natijaviy omilning (to'lovga layoqatlilik, Y) o'rtacha qiymati 1,033, mediana qiymati 1,02, maksimal qiymati 1,11, minimal qiymati esa 0,98 ga teng.

Yuqorida keltirilgan korrelyatsion tahlil asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Ko'p omilli ekonometrik modelning ko'rinishi quyidagicha:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda: Y - kompaniyaning to'lovga layoqatliligi;

X_1 - kompaniyaning joriy aktivlari;

X_2 - kompaniyaning kreditorlik qarzlari;

X_3 - kompaniyaning qisqa muddatli qarzlari;

ε - tasodifiy xato.

“Toshkentdonmahsulotlari” AJ ma'lumotlari bo'yicha EViews 9 dasturida ekonometrik modelni tuzish uchun hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Natijalar quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

³¹ EViews 9 dasturida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Regressiya tahlili natijalari³²

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Stand. xato	t-statistika	Ehtimollik
X_1	1,84E-11	3E-12	6,133333	0,0000***
X_2	1,12E-10	3,8E-11	2,947368	0,0212***
X_3	2,6E-10	1,26E-10	2,063492	0,0565***
C	1,84E-11	3E-12	24,544252	0,0124***
R-kvadrat	0,919360	O'zgaruvchi arifm. o'rtachasi		1.033333
Yord. R-kvadrat	0,908399	O'zgaruvchi stand. og'ish		0.038730
Regres. tenglamasi	0,434967	Akaike mezoni		-3.097672
Kvadrat qoldiq yig'indisi	0,378393	Shvars mezoni		-3.010017
Log. haq. yaqinlik	-0,222890	Xannan-Kvin mezoni		-3.286832
F-statistika	110,3871	Darbin-Uotson statistikasi		2.559260
Ehtimollik (F-stat.)	0,000000			

Ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{Y} = (1,84E - 11) + (1,84E - 11) \cdot X_1 + (1,12E - 10) \cdot X_2 + (2,6E - 10) \cdot X_3 \quad (2)$$

(24,5442) (6,1333) (2,9474) (2,0635)

“Toshkentdonmahsulotlari” AJ ma'lumotlari bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan shuni ko'rish mumkinki, korxonaning joriy aktivlari (X_1) ming so'mga oshsa, to'lovga layoqatlilik koeffitsiyenti (Y) o'rtacha 0,0000000000184 ga ortar ekan. Korxonaning kreditorlik qarzlari (X_2) ming so'mga oshsa, to'lovga layoqatlilik koeffitsiyenti (Y) o'rtacha 0,000000000112 ga kamayar ekan. Korxonaning qisqa muddatli qarzlari (X_3) ming so'mga oshsa, korxona to'lovga layoqatlilik koeffitsiyenti (Y) o'rtacha 0,00000000026 ga kamayar ekan.

Olib borilgan ko'p omilli ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, “Toshkentdonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJ va “Dunyo-M” AJda to'lovga layoqatlilik darajasini oshirish uchun joriy aktivlardan samarali foydalanish va ularning aylanuvchanlik darajasini oshirish, o'z navbatida, kreditorlik qarzlari, xususan, qisqa muddatli qarzlarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim, degan xulosaga kelindi. To'lovga layoqatlilik darajasining oshishi mazkur aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatining yaxshilanishiga va faoliyat uzluksizligining ta'minlanishiga olib keladi.

Dissertasiyaning «**Majburiyatlar auditining axborot ta'minotini takomillashtirish yo'nalishlari**» nomli to'rtinchi bobida auditorlik tekshiruvlarida faoliyat uzluksizligini baholashning axborot ta'minotini takomillashtirish, auditorlik tekshiruvlarida moliyaviy hisobotlardagi qiyosiy axborotlardan foydalanish yo'nalishlari hamda majburiyatlar hisobining aniqligini baholashda ichki audit ma'lumotlaridan foydalanish yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

Auditorlik faoliyatini takomillashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli sabablarga ko'ra tugatilishi, shu jumladan, ularning bankrotlik sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning manfaatlarini noaniqlik sharoitida himoya qilish vositasi sifatida auditorlik tekshiruvdan o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat

³² EViews 9 dasturida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

uzluksizligini baholash va manfaatdor tomonlarni risklar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilishda auditorlik faoliyatining ahamiyati oshib bormoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning majburiyatlari miqdori ularning faoliyat uzluksizligiga ta'sir qiluvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Auditorlik tekshiruvda baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyentini hisoblash orqali rezervlardan foydalanish samaradorligini baholash mumkin. Mazkur nisbat aksiyadorlik jamiyatining baholangan majburiyatlarini qoplash uchun rezervlarni samarali va yetarli darajada yaratish imkonini beradi. Ushbu koeffitsiyentni hisoblash va audit amaliyotida qo'llash xususida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti aksiyadorlik jamiyati baholangan majburiyatlarini qoplash uchun rezervlarni to'g'ri shakllantirish va ulardan foydalanish darajasini ko'rsatadi. Bu quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$QK_{BM} = \frac{\text{Hisobot davrida qoplangan baholangan majburiyatlar summasi}}{\text{Hisobot davrida tan olingan baholangan majburiyatlar summasi}} \quad (3)$$

Mazkur formula yordamida baholangan majburiyatlar bo'yicha rezervlardan foydalanish samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarning chegara qiymatlarini auditorning professional mulohazasi bo'yicha quyidagicha baholash maqsadga muvofiq:

$QK_{BM} < 1$ – samaradorlik yuqori, bu aksiyadorlik jamiyati baholangan majburiyatlar bo'yicha yaratilgan rezervlardan to'liq foydalanganligini anglatadi, bu esa baholangan majburiyatlarning to'g'ri va aniq hisoblanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, rezervlar yetarli bo'lganligini va ortiqcha ko'rsatilmaganligini hamda baholangan majburiyatlar kutilgan darajada qoplanganligini ifodalaydi;

$QK_{BM} = 1$ – samaradorlik o'rtacha, bu aksiyadorlik jamiyati baholangan majburiyatlarni qoplash uchun keragidan ortiq miqdorda rezerv yaratganligini ifodalaydi. Mazkur holatda, rezervlar haddan tashqari ko'p miqdorda yaratilgan degan xulosaga kelish mumkin, bu esa moliyaviy hisobotlarda majburiyatlarni asossiz ravishda oshirib yuborilganligini ham anglatadi;

$QK_{BM} > 1$ – samaradorlik past, bu aksiyadorlik jamiyati baholangan majburiyatlar uchun yaratilgan rezervlar tan olinishidan oldin foydalanganligini ko'rsatishi mumkin. Bu prognozning noto'g'ri ekanligi yoki mablag'lardan muddatidan oldin foydalanishning belgisi bo'lishi mumkin.

Majburiyatlar auditida tahliliy amallarni qo'llash chog'ida baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyentidan foydalanish auditorlarga aksiyadorlik jamiyatida rezervlarni to'g'ri va haqqoniy yaratayotganligini baholashga yordam beradi hamda mazkur rezervlar haqiqiy majburiyatlar uchun juda katta yoki kichik ekanligini tekshirish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarali ichki nazorat tizimini joriy qilish maqsadida subyekt rahbariyati tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim chora-tadbirlardan biri ichki audit xizmati faoliyatini yo'lga qo'yishdir. Chunki, ichki audit xizmati mazkur subyektning strategik, operatsion va moliyaviy maqsadlariga erishishda yordam berish uchun mo'ljallangan boshqaruv, risklarni boshqarish va nazorat jarayonlari samaradorligini baholash hamda audit qo'mitasiga hisobot berish orqali ishonchni ta'minlashga imkon yaratadi.

Ichki auditda tahliliy amallarni qo'llash xo'jalik yurituvchi subyektning

moliyaviy holati va operatsion samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga egadir. Majburiyatlar ichki auditining bir qismi sifatida qo'llaniladigan tahliliy amallar quyidagi jadvalda keltirilgan (8-jadval).

8-jadval

Majburiyatlar ichki auditida qo'llaniladigan tahliliy amallar tavsifi³³

№	Tahliliy amallarning turi	Qo'llash tavsifi
1.	Moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash	Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va noodatiy operatsiyalar, nomuvofiqliklar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli jihatlarni aniqlash uchun tahliliy amallar qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, hisobot davridagi majburiyatlarga oid ko'rsatkichlarni oldingi davrlar bilan taqqoslash qo'shimcha tekshirishni talab qiladigan noodatiy operatsiyalarni aniqlashga yordam beradi.
2.	Majburiyatlarning o'z vaqtida qoplanishini baholash	Majburiyatlarga oid asosiy ko'rsatkichlarni baholashda tahliliy amallardan foydalanish mumkin. Masalan, majburiyatlarning o'z vaqtida qoplanishi holatini o'rganish kreditorlik qarzlarning muddati o'tib ketishining oldini olishga yordam beradi.
3.	Muhim buzib ko'rsatishlar riski darajasini hamda firibgarliklarni aniqlash	Tahliliy amallar ma'lumotlardagi noodatiy yoki kutilmagan o'zgarishlarni tahlil qilish orqali muhim buzib ko'rsatishlar riskini aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, majburiyatlarni bajarish borasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan firibgarlik holatlarini aniqlash mumkin.
4.	Nazorat va muvofiqlikni monitoring qilish	Tahliliy amallar ichki nazorat tizimining samaradorligini hamda ichki va tashqi tartibga solish talablariga muvofiqligini nazorat qilish uchun foydalanilishi mumkin. Masalan, turli sohalarida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlarining ko'lamini tahlil qilish nazorat tizimining zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.
5.	Kelgusidagi natijalarni bashorat qilish	Tahliliy amallar joriy ma'lumotlar va ulardagi o'zgarishlarni tahlil qilish asosida kelajakdagi moliyaviy va operatsion natijalarni bashorat qilish uchun qo'llanilishi mumkin. Masalan, baholangan majburiyatlarni qoplash ko'effitsiyenti korxonaning majburiyatlari miqdori moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va haqqoniy yoritib berilganligini aniqlashga xizmat qiladi.

Tahliliy amallarning qo'llanilishi ichki auditning sifatini oshirishga va belgilangan dastur doirasida ichki auditorlik chora-tadbirlarini o'z vaqtida bajarilishiga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning «**Majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish**» nomli beshinchi bobida majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish masalalari, majburiyatlar auditini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish hamda auditorlik tekshiruvlarida majburiyatlar bo'yicha baholangan qiymatlar to'g'riligini aniqlash yo'nalishlari keltirib o'tilgan.


Bugungi kunda zamonaviy bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan biri ijara hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z aktivlarini vaqtincha foydalanish uchun boshqa subyektlar ijaraga beradi, yoki aksincha, zarur mulkni ijaraga oladi.

³³ Muallif ishlanmasi.

“Ijara” nomli 17-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq ijara ikki turga bo‘linadi: uzoq muddatli aktivlarni sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy ijara va bunday sotib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan operativ ijara.

Moliyaviy ijarada ijara obyekti ijaraga oluvchining moliyaviy holat to‘g‘risida hisobotida aks ettiriladi. Operativ ijarada ijara ob‘ekti ijaraga beruvchining hisobotlarida aks ettiriladi.

Ijara boshlangan sanada ijaraga oluvchi ijara bo‘yicha majburiyatini shu sanada to‘lanmagan ijara to‘lovlarining joriy qiymati bo‘yicha hisoblashi lozim (6-rasm).



6-rasm. Ijaraga oluvchining buxgalteriya hisobi³⁴

Yuqorida keltirilgan rasmga muvofiq, ijaraga oluvchi ijara to‘lovlarini ijara muddati davomida to‘g‘ri chiziqli usulda yoki boshqa tizimli yondashuvdan foydalangan holda xarajat sifatida hisobga olishi mumkin. Shuningdek, asosiy aktiv qiymati yangi (hali foydalanilmagan) aktiv yordamida aniqlanishi va hisob siyosatida mutlaq miqdor sifatida belgilanishi kerak.


Shuningdek, amortizatsiyalangan qiymatda baholanadigan moliyaviy majburiyatlar, odatda, uzoq muddatli majburiyatlar tarkibida aks ettiriladi hamda majburiyatni so‘ndirishning oxirgi davrida qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar tarkibiga o‘tkaziladi.

Agar yuqoridagi rasmda ta’kidlab o‘tilgan foiz stavkasi oson aniqlansa, ijara to‘lovlari ijara shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkasidan foydalangan holda diskontlangan bo‘lishi kerak. Agar bunday foiz stavkasini aniqlash qiyin bo‘lsa, ijaraga oluvchi qo‘shimcha qarz mablag‘larini jalb qilish mumkin bo‘lgan stavkadan foydalanishi kerak.

³⁴ Muallif ishlanmasi.

Shuningdek, ijarachi tomonidan ijara shartnomasini tuzishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, ya‘ni ijara oluvchining ijara shartnomasini tuzishda yuridik yoki maslahat to‘lovlari kabi xarajatlari amalga oshirilishi mumkin. Agar ijara boshlang‘ich to‘lovlar (masalan, dastlabki to‘lov) kiritilgan bo‘lsa, ular aktivning dastlabki qiymatiga qo‘shiladi.

Tadqiqot davomida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va xorijiy amaliyot tajribalari atroflicha o‘rganildi. O‘rganish natijalari moliyaviy holat to‘g‘risida hisobotda majburiyatlarga oid axborotlarni to‘liqroq aks ettirish lozimligini ko‘rsatdi. Shu boisdan, tadqiqot ishida moliyaviy holat to‘g‘risida hisobotda majburiyatlarning quyidagi turlarini alohida aks ettirish taklif etildi (7-rasm).




7-rasm. Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirilishi taklif etilgan majburiyatlar turlari³⁵

Moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirishda amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha baholash muhim ahamiyatga ega.

³⁵ Muallif ishlanmasi.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy aktiv yoki majburiyatni faqat instrument bo'yicha shartnomaning tomoni bo'lsa, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda tan olishi lozim hisoblandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar barcha moliyaviy majburiyatlarni keyingi baholash paytida amortizatsiyalangan qiymatda baholanadigan majburiyatlar sifatida tasniflashi maqsadga muvofiq (5.8-rasm).



8-rasm. Amortizatsiyalangan qiymatda baholanadigan majburiyatlarni baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish metodikasi³⁶

Yuqorida keltirib o'tilgan rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, moliyaviy majburiyatlar bo'yicha bitimga oid xarajatlar moliyaviy majburiyatning boshlang'ich qiymatini kamaytiradi. Moliyaviy majburiyatning to'g'ri va aniq so'ndirilishiga erishish uchun samarali foiz stavkasi har doim nominal foiz stavkasidan yuqori qilib belgilanishi lozim. Nominal foiz stavkasi to'lanishi oldindan belgilangan foizlarni ko'rsatadi. Samarali foiz stavkasi esa, haqiqatda moliyaviy hisobotlarda daromadlar yoki xarajatlar sifatida tan olinadigan foizlarni ko'rsatadi. Samarali foiz stavkasining qiymati nominal foiz stavkasi qiymatini muayyan muddatda muvofiqlashtiradi.

Auditorlik tekshiruvida moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va haqqoniy tuzilganligi to'g'risida xolisona auditorlik xulosalarini shakllantirishda mazkur moliyaviy hisobotlarda majburiyatlar miqdorining to'g'riligi va aniqligi shuningdek, majburiyatlar

³⁶ Muallif ishlanmasi.

hisobiga oid axborotlarning to'liq aks ettirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar auditini o'tkazish paytida auditorlar moliyaviy hisobotlarda mavjud muhim buzib ko'rsatishlar risklarini aniqlashi va ularni pasaytirish choralari ko'rishi kerak. Mazkur muhim buzib ko'rsatishlar risklari murakkab buxgalteriya operatsiyalari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashdagi tushunmovchiliklar, baholangan va shartli majburiyatlarning xususiyatlari kabi omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Majburiyatlar auditini o'tkazish jarayonida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlar risklari hamda ularni kamaytirish yo'nalishlari dissertatsiya ishida keltirib o'tilgan. Auditorlik tekshiruvlarida muhim buzib ko'rsatishlar risklarining kamaytirilishi majburiyatlarning haqqoniy qiymatini to'g'ri aniqlashga va moliyaviy hisobot ishonchliligi xususida to'g'ri fikr shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi manfaatdor tomonlarning oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq foydalanuvchilarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga jiddiy ta'sir etuvchi jihatlar mavjud. Mazkur jihatlar toifasiga xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati tomonidan aktivlar va majburiyatlarni buxgalteriya hisobida yuritishda baholangan qiymatlardan foydalanishini kiritish mumkin.

Baholangan qiymatlar haqqoniy qiymatdan farqli o'laroq, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan mustaqil ravishda belgilangan qiymat hisoblanadi. Ushbu qiymatning qay darajada to'g'ri belgilanganligi auditorlik tekshiruvlarida aniqlanishi zarur. Zero baholangan qiymatlarning noto'g'ri belgilanishi moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatish holatlari va ajratib bo'lmaydigan riskning oshishiga hamda ishonchsiz auditorlik xulosalarining tuzilishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan dissertatsiya ishida auditorlik tekshiruvlarida majburiyatlar bo'yicha baholangan qiymatlarning to'g'ri belgilanishini tekshirish yo'nalishlariga e'tibor qaratildi.

Auditorlik tekshiruvlarida baholangan qiymatga ta'sir qiluvchi omillar va ularning ta'sir darajalarini o'rganish auditorlik tekshiruvlari sifatining oshishiga va majburiyatlar miqdori bo'yicha ishonchli fikrni shakllantirish imkoniyatini taqdim etadi.

XULOSA

Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

